

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 9 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI .....	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ .....	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI .....	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....	65-68

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLUKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI .....	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ .....	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS .....	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	139-144
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI .....	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ .....	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	171-176
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA .....	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI .....	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI .....	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA VAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI .....	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES .....	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI .....	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLGIK BIRLIKRLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	239-242
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Tўлаганова Гулчехра Захитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR .....	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjanoich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	263-266
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) .....	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI .....	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI .....	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .....	293-301



<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....	302-308
<i>Матажонова Gulnoza Karimovna</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI .....	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI .....	357-362
<i>Utkirov Abbas Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY .....	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

**Received:** 30 August 2024  
**Accepted:** 5 September 2024  
**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

## **STUDY OF “BOBURNOMA” IN JAPAN**

**Yusupova Sadokat Alijon qizi**

PhD student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov

**Abstract.** This article, the life and creative path of the great general, king and poet Zahiriddin Muhammad Babur, the history of Babur and the Babur dynasty are studied in foreign countries, in particular, the works created in Japan based on the "Boburnoma", the issues of interpretation and analysis of critical texts are clear facts. is studied based on In addition, the article examines the critical texts and works of Keikichi Hukazawa, Toshiyuki Etani, Kyuzo Kato, and the leading Orientalist scholar Eiji Mano.

**Key words:** Zahiriddin Muhammad Babur, "Boburnoma", literature, translation, studying "Boburnoma" abroad, historicity, critical text, Eiji Mano, artistry.

---

## **“BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O’RGANILISHI**

**Yusupova Sadokat Alijon qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ijod yo’li, Bobur va boburiylar sulolasi tarixi xorijiy mamlakatlarda o’rganilishi, xususan, Yaponiyada “Boburnoma” asosida yaratilgan asarlar, tanqidiy matnlar talqin va tahlil etilishi masalalari aniq faktlar asosida o’rganiladi. Bundan tashqari maqolada Yaponiyalik boburshunos olimlardan Keykichi Xukazava, Toshiyuki Etani, Kyuzo Kato hamda yetakchi sharqshunos olim Eyji Manoning tanqidiy matn va asarlari o’rganiladi.

**Kalit so’zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, adabiyot, tarjima, “Boburnoma”ning xorijda o’rganilishi, tarixiylik, tanqidiy matn, Eyji Mano, badiiylik.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N25>

XVI asrning birinchi yarmida Hindistonda buyuk imperiyaga asos solgan Zahiriddin Muhammad Bobur dunyo tarixida insonparvarligi bilan nom qozongan shaxslardan biridir. Ulug’ shoh va shoir, faylasuf va olim Zahiriddin Muhammad Bobur sarkarda va davlat arbobi, buyuk bobosi Amir Temurning munosib vorisidir. Mustaqillikning keyingi yillarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ko’plab monografiya va risolalar nashr etildi. Jumladan, G’aybulloh Assalom, Ne’matulla Otajonning “Jahongashta “Boburnoma” (1996); R.Vohidovning “Biz bilgan va bilmagan Bobur” (1999); A.Ibrohimovning “Boburnoma”- buyuk asar” (2000); Sayfiddin Jalilovning “Bobur va Yuliy Sezar” (2001); Saidbek Hasanovning “Bobur ijodiyoti” (2007), I.Adizova “So’zumni o’qub anglag’aysen o’zumni” (2008) monografiya va risolalari nashr etildi.

Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. “Adabiyot, ilm, ma’rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. O’zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma’rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo’lmaymiz.” [1; 2017.] Shu jihatdan, ulug’ tarixiy siymo haqida yaratilgan tarixiy-badiiy manbalarni biografik yondashuv tamoyillari asosida

qiyosiy aspektda tekshirish va umumlashtirish dolzarbdir. Bobur o'zbek adabiyoti rivoji hamda dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan benazir shoir va mutafakkir hisoblanadi.

Jumladan, Boburning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot beruvchi "Boburnoma" memuari "Tengri taoloning inoyati ila tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda (milodiy 1494-yil) Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldum", - deb boshlangan. [2; 5-b.]

Boburning "Boburnoma" memuar asari, yanada aniqrog'i "Vaqoe" yoki "Voqealar bayoni" nomli ajoyib xotirnomasi asosida ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunga qadar boburiylar tarixiga bo'lgan qiziqish butun dunyo sharqshunos olimlari e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

Ta'kidlash kerakki, Bobur yashab ijod etgan XV-XVI asrdan toki bugungi kunga qadar yozilgan biror tarixiy asar, biror tazkira yoki bayoz yo'qki, unda ulug' shoir va hukmdor hayoti, "Boburnoma"si, u qoldirgan madaniy-ma'naviy xazina haqida gap ketmagan bo'lsin. Bu sohada eng ko'p muvafaqqiyatlarga J.Leyden, U.Erskin, A.Beveridj, [3; 163-b.], R.Kaldekot, [4; 339-b.], F.Talbot [5; 7-b.]qolaversa, L.King, U.Takston [6;12-b.] kabilar erishganlar.

Xususan, XVIII asrdan boshlab, Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan qiziqish Yevropada ham jonlanib ketdi. Uning "Boburnoma"sig bo'lgan ehtirom tufayli XIX asrda u ingliz (Elfinston, Erskin, Beveridj), fransuz (Pave de Kurteyl) tillariga tarjima qilinib bosildi. Rus olimi N.Ilminskiy esa "Boburnoma"ning asl nusxasini nashr ettirdi. Bunday hol XX asrda ham davom etdi. Jumladan, fransuz adibi Fernand Grenard "Bobur", Amerikalik yozuvchi Harold Lamb "Bobur-sheer" [7; 351-b.], Fris Vyurtle "Andijon shahzodasi" kabi asarlarini yaratdilar. F.Vyurtle asarida: "Uning donoligi, iste'dodi, mardligi, saxiyligi jihatidan fanga, sanatga va ulardan mohirona foydalana olish salohiyatiga ko'ra unga teng keladigan podshoh topilmaydi", - deya Bobur shaxsini ta'riflaganini guvohi bo'lamiz. [8; 12-b.] Fernand Grenardning asari keyinchalik nemis (1931-y) va turk tillariga (1970-y) tarjima qilinib, nashr ettirildi. "Boburnoma"ning bevosita o'zbek tilidan fransuz (Bake Grammon, 1980-y) va ingliz (V.M.Sekston, 1996-y) tillariga yangi tarjimalari maydonga keldi. "Boburnoma"ning ilk nodir qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lsada, ancha paytgacha asarning ilmiy-tanqidiy matni yaratilmagan edi. Bu borada ilmiy ekspeditsiyalar amalga oshirilgan bo'lsada, biroq kun chiqar mamlakat Yaponiyada Bobur va boburiylar saltanati tarixi, madaniy va badiiy merosi to'laligicha o'rganilmayotgan edi. Bobur va uning ijodiga qiziqish yapon sharqshunos olimlari tomonidan XIX asrdan o'rganila boshlandi. Xususan, Bobur ijodi va asarlarini o'rganish uchun xorijiy tilda yaratilgan adabiyotlar, tarixiy manbalar kam edi. Shunga qaramasdan, Bobur va boburiylar saltanati tarixi va badiiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishni Yaponiyada tarixshunos va sharqshunos olimlar o'z maqolalari orqali ifodalab berdi.

Hozirgi kunga qadar Yaponiyada sanoqli olimlar, Keykichi Xukazava, Toshiyuki Etani, Kyuzo Kato hamda yetakchi olimlardan Eyji Mano Bobur va boburiylar tarixi bo'yicha ilmiy maqolalar, monografiya, tanqidiy asar matnlarini yaratdilar. Yaponiyada birinchilardan bo'lib Keychiki Xukazava "Sulton Bobur-buyuk saltanat asoschisi" nomli maqola yozib, bu maqola "Shigaku-Zasshi" va "Journal of History" jurnallarida 1910-1911-yillarda qayta-qayta chop qilingan. Aslida bu maqola asardek yozilgan bo'lib, hajmi 237 sahifani tashkil qilgan. Bu maqola o'z vaqtida juda katta e'tibor va olqishlar olib kelgan olimga, sababi maqolada Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindistondagi harbiy va siyosiy harakatlar tahlil etilib, Boburning shoh va shoirlik mahorati yuksak baholangan. K. Xukazava ilmiy va badiiy, tarixiy ma'lumotlarni yig'ib, asar holida chiqarmoqchi bo'ladi, ammo bunga erisha olmaydi. Xukazavaning bu maqolasidan keyin

“Bobur shaxsi va boburiylar tarixini Yaponiyada tadqiq etish deyarli 50 yil mobaynida to‘xtab qoldi”-, deydi Eyji Mano. [9; 12-b.]

Yaponiyada yana bir boburshunos olim Toshuyuki Etani bo‘lib, olim “Hindiston Bobur nigohida” nomli muxtasar maqolasini 1962-yilda e‘lon qilgan. Ushbu maqolada Etani Boburning Kobuldagi qabrini ziyorat etganini, Boburning harbiy mahorati, Hindiston to‘g‘risidagi qarashlarini tahlil qilib berganligini guvohi bo‘lamiz.

Bundan tashqari yana bir Bobur va boburiylar tarixiga qiziqish bildirgan yapon olimi Kyuzo Kato bo‘lib, rus tilida yozilgan Bobur va boburiylar saltanatiga oid yaratilgan ilmiy adabiyotlarga tayanib, 1978-1983-yillarda ikki kichik maqola yozadi. Sababi Kyuzo Kato rus tilini yaxshi bilganligi va boshqa xorijiy tillarda yaratilgan ilmiy-tarixiy adabiyotlarni o‘rganib, Bobur haqida ilmiy maqola yozishga kirishib ketadi. Bir qancha ilmiy maqolalarini yig‘ib, 1995-yilda olim “Markaziy Osiyoning tarixiy o‘zligi” nomli kitobini nashrdan chiqarib, asarda alohida Bobur shaxsiyatiga to‘xtalib o‘tadi. Bunda olim rus tiliga o‘girilgan asarlarni o‘qib, ularni tahlil qiladi. Hattoki, Boburning she‘rlarini rus tilidan yapon tiliga ham tarjima qilgan. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, yuksak saltanat, Boburning ulkan merosini tahlil qilish va o‘rganishga qodir emas edi. Bu kabi asar va maqolalarni Yaponiyada yaratilgan Bobur faoliyati, ijodi haqida yoritilgan muhim va qiziqarli ma‘lumotlarga boy asosiy manba deb bo‘lmaydi. Natijada sharqshunos olim Eyji Mano Yaponiyada Bobur va uning ijodini ilmiy o‘rganishga kirishib, yetakchilikni o‘z qo‘liga oladi.

“Boburnoma”ning ilmiy-tanqidiy matnini ilk bora boburshunos olim Eyji Mano amalga oshirdi. [8; 12-b.] Olim Osiyo xalqlari tarixi va madaniy merosiga ulkan qiziqish bildirib, Temuriylar tarixi bo‘yicha ilk tadqiqotlarni Yaponiyada boshlab bergan. Keyinchalik Temuriyzodalar avlodidan bo‘lgan zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga qiziqib qoladi. “Boburnoma” asarini sinchkovlik bilan o‘rganib, asar bo‘yicha ilk tanqidiy matnni yaratadi. U bu ilmiy-tanqidiy matnni 1995-yil e‘on qilib, 1996-yilda shu nashrning uzviy davomi sifatida mukammal “Ko‘rsatkichlar” alohida jild hoida chop ettirdi. [9; 13-b.] “Boburnoma”ning bu ilmiy-tanqidiy matni dunyo olimlari tomonidan yuksak baholandi.

Mazkur tanqidiy matn “Boburnoma”ning asl nusxa tilidagi 4 nusxasi va shu bilan birga fors tilidagi bir qo‘lyozma nusxa asosida tayyorlandi. Olim asarning 4 asl nusxasi – Elfinston, Haydarobod, Britaniya, Qozon bosma nusxalaridan tashqari, 2 ta forscha qo‘lyozma – Yangi Dehli Milliy muzeyidagi “Voqeoti Boburiy” deb nomlangan qo‘lyozma, Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalardan foydalangan. Nashrga Haydaroboddagi nusxa asos qilib olingan bo‘lib, olim ilmiy-tanqidiy matnni tiklashda jami bo‘lib 7 ta: 4 ta o‘zbekcha va 3 ta forscha nusxadan foydalangan.

E.Mano 1981-yildan boshlab boburiylar saltanati tarixi haqida maqolalar nashr ettira boshladi. Ilk maqolasi “Bobur va Hirot” nomi ostida chop etilib, ushbu maqolada Boburning Hirotida yashagan kunlari, ilmiy-adabiy merosga qo‘shgan hissasi, Hirotidagi adabiy merosni rivojlantirish uchun qilgan harakatlarini tasvirlagan. 1983-1984-yillarda “Boburnoma”ning Farg‘ona hamda Kobul bo‘limlarini yaponcha tarjimalarini tayyorladi. Eyji Mano Rossiya, Hindiston, Eron, Angliya, Shotlandiya, Fransiya kabi mamlakatlarga Bobur haqidagi qimmatbaho tarixiy ma‘lumotlarni yig‘ish, “Boburnoma” asarining chig‘atoy va fors tillardagi qo‘lyozmalarini olish uchun ekspeditsiyalar uyushtirgan. Ekspeditsiya jarayonida, ko‘plab tarixiy-ilmiy faktlar yig‘ishga urundi. Eyji Mano “Boburnoma”ning U.Erskin tomonidan qilingan tarjimasiga dastlab Kioto universitetida o‘qib yurgan kezlarda qiziqib qolgan. Shu tariqa unda

“Boburnoma” matnini o‘rganish va tarjima qilishga ishtiyoq baland bo‘lgan. Olim “Boburnoma”ning asliyatida to‘liq o‘rganish uchun arab, fors va turk tillarini chuqur o‘rgangan. Binobarin, busiz asarni tadqiq qilish imkonsiz edi. Talabalik yillarida Eyji Mano uchun asarning Haydarobod qo‘lyozma nusxasini, A.S. Beverij xonim tomonidan qilingan mukammal inglizcha tarjimani, “Boburnoma”ning boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan inglizcha, nemischa, fransuzcha tarjimalarini o‘rganish uchun eng qulay va samarali davr bo‘lgan edi”, – deydi o‘z tadqiqot ishida Hoshimova D. [10; 78-b.]

Eyji Mano “Boburnoma”ning qo‘lyozma nusxalarini o‘rganib, 1995-yilda asarning arab yozuvidagi nusxasiga tahliliy xulosa yozgan. Natijada olimning muntazam izlanishlarining bu xulosasi ilk kitob holiday nashri bo‘lib qoldi. Ushbu kitob Xalqaro Bobur fondi mukofoti bilan taqdirlanib, asar o‘zbek olimlari tomonidan ham yuksak baholandi. “Bu ishimi 1960-yilga kelib P.Shamsiyev va S.Mirzayev chop ettirgan o‘zbek tilidagi nashrga so‘zma-so‘z taqoslab chiqishdi” deya ta’kidlaydi Eyji Mano. 1996-yilda olim “Boburnoma” bo‘yicha izlanishlarining ikkinchi jildini chop qildirib, ushbu jildning boshqa jildlardan farqi shundaki, izohlar alfavit tarzida joylashtirilgan edi. 1998-yilga kelib “Boburnoma”ning keng qamrovli annotatsiyasi va qo‘lyozma nusxalar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan 3-jildni nashr qildirdi. Bu jild o‘ta ilmiy tilda yozilgan bo‘lib, ilmiy termin va sharhlardan ham namunalar keltirilgan bo‘lib, har qanday oddiy yaponiyalik asarni osonlikcha o‘qiy olmaydi deydi E.Mano. [10; 401-b.] Tanqidiy matn bilan sinchiklab tanishish noshirning bu so‘zlarida jiddiy ilmiy asos mavjudligini ko‘rsatadi. Bevosita “Boburnoma”ning qo‘limizdagi tanqidiy matniga kelsak, ta’kidlash joizki, u matnshunoslik eng so‘nggi yutuqlari darajasidagi tadqiqotdir. Asosiy jihati shundaki, matn uchun tanlangan tayanch manbalar va ularning tasnif va tavsifi, qabul qilingan shartli belgi va qisqartmalar haqida ma’lumotlar yapon va ingliz tillarida yozilgan muqaddimada batafsil bayon qilingan. Yaponiyalik boburshunos katta ilmiy jasorat ko‘rsatib, bevosita amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lgan jiddiy tadqiqotni yaratdi. Nashrning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, u sidirg‘a matn va bayondan iborat emas, balki matn o‘ziga xos bir tarzda yoritilgan, jonlantirilgan. Natijada, salmoqdor jilddan iborat yorqin manzarador, nihoyatda maroqli “Boburnoma” asari tarjimasi vujudga kelgan. Shuningdek, tarjima asarda yil voqealarini kichik-kichik qismlarga bo‘lib, ularga alohida nom va sarlavhalar qo‘yilgan. Sarlavhalar 180 tadan ziyod. Ular asarda qalamga olingan voqea, hodisalar mazmuni va mundarijasiga mos bo‘lib kitobxon e’tiborini o‘ziga tortadi. Ayni chog‘da, tarjimon sahifalar hoshiyasida sharqona uslubga mos ravishda, g‘arb o‘quvchisi uchun tushunarli bo‘lmagan atamalar, so‘z va iboralar, kishi va joy nomlari, har xil udumlarni voqealar aks etayotgan joyda izohlaydi, muhim tushuntirishlar beradi. Chunonchi, mo‘g‘ul, o‘zbek, turk, tojik, qipchoq kabi el-uluslar, ularning avlod, ajdodlarigacha ta’rif berib, kitobxonning qo‘shimcha ma’lumot qidirib, fikri chalg‘imasligiga, voqea, hodisalardan to‘liq bahra olishga harakat qilgan.

Tanqidiy matnning asosiy tamoyillari:

1. Haydarobod nusxasi asosiy matn sifatida olingan;
2. Haydarobod nusxasining matnidagi kamchiliklar boshqa uch (Qozon,

Edinburg, London) turkiy matnga solishtirilib to‘g‘irlangan. Shuningdek, qiyoslash jarayonida forscha tarjimadan ham imkoniyat darajasida foydalanilgan. Agar Haydarobod nusxasida yetishmagan so‘z, birikma, parchalar turkey qo‘lyozmalarda mavjud bo‘lsa, ushbu so‘zlarni asosiy matnga kiritish yoki kiritmaslik masalasida forsiy tarjimaga ham murojaat qilingan. Shu

bilan birga, matn iloji boricha aniq va to'g'ri bo'lishi uchun, P.Shamsiyevning 1960-yilgi nashridan hamda U.Tekston tarjimasidan istifoda etilgan.

3. Asosiy matnda amalga oshirilgan tuzatishlar “qisqartma va ramzlar” sarlavhasi ostidagi bo'limda aniq ko'rsatib o'tilgan;

4. Asosiy matnga tuzatishlar kiritilganda, bu kuzatishlarga asos bo'lib xizmat qilgan manba, shuningdek matnlardagi o'xshashliklar izohda ko'rsatmalar orqali ifodalangan;

5. Asosiy matndagi imlo boshqa qo'lyozmalarga asoslanib to'g'irlangan hollarda “imlo”bo'limida aniqroq tushuntirib o'tilgan;

6. Haydarobod qo'lyozmasida imlo tuzatishlari orasidagi farqlar ko'rsatilganida, izoh uchun maxsus ko'rsatkichlardan foydalanilmagan.

Eyji Manoning tanqidiy nashri asosan Haydarobod qo'lyozmasi matniga muvofiq keladi. E.Mano “Bobur va u yaxshab ijod etgan davr” deb nomlangan 4-jildni 2001-yilda nashr qilib, ushbu jildga olim XIV va XVI asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy muhiti haqida yozilgan maqolalarni kiritdi. Bu jild sababli Eyji Mano “Yaponiya akademigi” mukofotiga sazovor bo'ldi. Olim tanqidiy matn nashrining qo'shimcha o'zgartirishlar kiritilgan ikkinchi nashrini ommaga havola qilib, kitob bugungi kunga qadar sevib o'qib kelinmoqda. Eyji Mano izlanishlar qilishdan to'xtamay, “Boburnoma”ning asl nusxasini o'rganib, yapon tilida maqola chop ettirdi hamda Xo'ja Ahror Valiyning “Volidiya” asari haqida ham o'z fikr va mulohazalarini bildirib, bu asar haqida ham ilmiy maqola yozadi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, olim Bobur shaxsiyatiga ulkan ehtirom ko'rsatib, “Bobur-buyuk saltanat asoschisi” nomli mo'jaz kitobini 2013-yilda nashr ettiradi. Asarning boshqa asarlardan farqli jihati shundaki, bu kitob muxtasar shaklda bo'lsa ham, Yaponiyaning oddiy aholisi uchun Bobur haqida yozilgan birinchi tarixiy-badiiy kitob hisoblanadi. Kitobning sharhida yosh yapon olimi Junichi Nishimura “Ushbu asar professor Manoning Boburga yozgan maktubiga o'xshaydi” degan o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tgan. Eyji Mano ham “Men bu fikrga qo'shilaman va mazkur kitobda Boburni ko'klarga ko'targanman”, -degan fikrlarini uchratamiz. Uning fikricha: “Boburnoma” asari yirik ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, jug'rofiy, harbiy va etnografiyaga oid qimmatli asardir. Shoir, olim va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu shox asari XVI asrda Hindistonda katta e'tibor qozongan. Bu kitob o'zbekchadan fors-tojik tiliga uch marta tarjima qilingan. Mahoratli kotiblar Bobur Mirzoning nabirasi Jaloliddin Muhammad Akbar podshohning ko'rsatmasiga binoan kitobni bir necha nusxada ko'chirgan, rassomlar esa ularni nafis, mo'jaz miniatyuralar bilan ziynatlagan”. [11; 407-b.]

Olim “Boburnom”ni sinchkovlik bilan nazardan o'tkazganda, asarni bir qarashda tarixiy voqealar majmuasi bo'lsa hamki, uning badiiy qimmatini beqiyos ekanligini alohida tasdiqlab o'tadi.

Asarda:

Xulqing rost qilg'il har kopug'a borsang,  
“Ahsanta” der bori el gar yaxshi ot chiqarsang.

Jumlalardagi ma'nodan inson hayot yo'lida, xulq, odobida yaxshilikni asos qilib olmog'i kerakligini, hayot yo'li davomida qo'lidan kelguncha kishilarga yaxshilik qilishi, mehr-oqibat, hurmat ko'rsatishi, shuningdek, ota-onaga, kata-yu kichikka, qarindosh urug'larga savobli ishlar qilish darkorligini Eyji Mano tanqidiy matnida yorqin ranglarda ifodalab berganligini

guvohi bo'lamiz. Eyji Mano Bobur ruhiyatini sinchkovlik bilan o'rganib, uning badiiy mahoratiga tan beradi. Tanqidiy matnning 4-qismida asarga qo'shimchalar kiritib ketadi. E.Manoning chuqur izlanishlari davomida olim "Tarixi Rashidiy" asarini ham o'rganishga sazovor bo'ladi.

To'rtinchi jildda Bobur yashagan XV-XVI asrlarda markaziy Osiyoda yuz bergan turli voqealar bayonini ham yoritib bergan.

Eyji Mano hozirgi kunda o'z ilmiy faoliyatini Kioto universitetida olib bormoqda hamda "Boburnoma"ning yangi tarjimasini chop ettirishni reja qilayotganini ma'lum qilgan. Olim: "Men juda ham mamnunmanki, yapon xalqi Boburning qiziqarli va jozibali memuar asarini to'laligicha o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Umid qilamanki, "Bobur" nomli bu kitobim va yangi tarjimam ("Boburnoma") yapon xalqiga Boburning ajoyib shaxsiyatini ochib beradi va nafaqat Boburga, balki O'zbekistonga b'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Agar yaponiyaliklar Boburni yaxshiroq va yaqindan bilishsa, uning ajoyib va jozibali shaxsiyatiga maftun bo'lishlari aniq". [11; 21-b.]

Eyji Manoning tadqiqotlari oldingi tadqiqotlardan bir muncha farqli jihati shundaki, muallif "men"ining tarixiy voqealarga, tarixiy shaxslarga munosabatida tutgan o'rni va ahamiyati, muallifning keng dunyoqarash, yuksak idrok va qobiliyat sohibi ekanligi tahlil va tadqiq etgan. Sharqshunos olim, "Boburnoma" muallifining badiiy mahorati, uslubining o'ziga xos uslub va an'anaviylik xususiyatlarini o'rganadi va tanqidiy matnida ifodalab beradi. Asarlarida Boburning bolaligi, shaxsiyati, hukmdorlik faoliyati, Boburning ma'naviy jasorati yuksak baholanga.

Bugungi kunda Bobur va uning ijodiga Yevropada qiziqish XIX asrning boshlarida alohida sohaga aylandi deb baholansa-da, bu yo'nalishdagi ilk ilmiy ishlar XVII asrga borib taqaladi. Ular orasida "Boburnoma"ning 1826-yili Londonda ingliz tilida nashr qilingan birinchi tarjimasini, fransuzcha tarjima, ingliz tili tarjimasining 1844-yilgi qisqartirilgan nashri va chet el yirik olimlari V.Rashbruk, L.Stenli, H.Lamb, F.Grenandning ingliz va fransuz tillarida nashr etilgan Bobur haqidagi maxsus monografiya va tadqiqotlari borligini guvohi bo'lamiz. Fransuz sharqshunosi, Parij universiteti professori Bartelemi Erblo (1625-1695) butun umrini Sharq hukmdorlari va ijodkorlari haqidagi qomusiy asar yozishga bag'ishlab, olimidan ikki yil o'tib 1695-yilda muallifning "Sharq ensiklopediyasi" qomusiy asari nashrdan chiqqan [12; 163-b.] Aynan shu asarda ilk bora yevropalik olimlarning Bobur haqidagi ilmiy qarashlari aks ettirilib, qiziqish bilan o'rganilib kelinmoqda.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Руспубликаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Андижон вилояти «Боғи Бобур» истироҳат масканида сўзлаган нутқидан. 05.06.2017.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Фан, 2019. – 5 б.
3. D'Herbelot, Babur ou Babor, - Bibliotheque orientale. Paris, 1697. p.163.
4. Caldecott R.M.. The life of Baber, Emperor of Hindostan. London: James Darling, 1844. – p 339.
5. Ас-Салом Ф., Отахон. Жаҳонгашта «Бобурнома». Т., 1996. – 7 б.
6. Teshaboyeva Z.. A comparative analysis of Phraseological Units in Baburname and Their different English translations. Philology matters: Vol. 2019: Iss. 1, Article 12.
7. Lamb H. Babur the Tiger: First of the Great Moguls. – New York: Garden city, 1961. –P.351.
8. Вюртле Ф. Андижон шаҳзодаси. -- Т.: Ўқитувчи, 2012. – 12 б.

9. Abilova X. Yapon olimining Mirzo Boburga maktubi. -- T.: Ma'naviy hayot, 2014, 2-son, 12-13 b.
10. Хошимова Д. М. «Бобурнома» асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари ҳамда «Бобурнома» танқидий матнининг япон нашрлари мисолида. Филол. фан. номзоди...дисс. // ЎзР.Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги. Мирзо Улуғбек номидаги ЎЗМУ. Тошкент, 2006. – 159 б.
11. Mano Eiji. Babur-Nama. (Vaqa'i), Concordance and classified Indexes, Kyoto. 1996. –P.407.
12. Abdug'afforov A, O'rinboev A. Yapon olimining ilmiy jasorati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1996, 21 b.
13. Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60–80-йиллар). Филол. фан. ном. ...дисс. -- Т.: 2001. – 78 б.



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).